

TATSÄCHLICH, WAHRSCHEINLICH, LEIDER, HOFFENTLICH MODAL SO'ZLARINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Xasanov Ramish Samatovich

*Qarshi Davlat Universiteti Roman Herman filologiyasi fakulteti**Nemis tili va adabiyoti kafedrasida nemis tili fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: *ushbu maqolada modal so'zlar, ularning gapda qo'llanishi, nemis tilida modal so'zlarning semantik xususiyatlari va tatsächlich, wahrscheinlich, leider, hoffentlich modal so'zlarining gap mazmuniga qay darajada ta'sir qilishi to'g'risida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *modal so'zlar, Konjunktiv I, Konjunktiv II, ravish, yuklama.*

Abstract: *In this article, the situation with the forms, their use in speech, the semantic movement of the form in German and the extent to which the forms tatsächlich, wahrscheinlich, leider, hoffentlich affect the content of the sentence.*

Key words: *modal words, Konjunktiv I, Konjunktiv II, adverb, particle.*

Modal so'zlar nemis tilida ba'zi o'rinlarda ma'no jihatdan ravish so'z turkumiga ham tenglashadi. Modal so'zlar shunday tushunchaki, so'zlovchi ular orqali gapdagi ish harakatga o'z munosabatini bildiradi. Ushbu maqolada asosan nemis tilidagi tatsächlich (haqiqatdan) wahrscheinlich (ehtimol), leider (afsuski), hoffentlich (ishonchli) kabi modal so'zlar haqida so'z yuritiladi. Ular nafaqat (1)darak gaplarda, balki gapning boshqa maqsadga ko'ra turlari bo'lmish (2)so'roq, (3)buyruq, (4) istakni ifodalovchi va (5)his hayajon gaplarda gumon, aminlik va ikkilanish kabi tushunchalarni ifodalaydi.

- 1) Er hat es tatsächlich gesagt. Aslida u buni aytgan.
- 2) Hat er es tatsächlich gesagt? U buni haqiqatdan ham aytdimi?
- 3) Sag es tatsächlich! Buni rostdan ham ayt
- 4) Wenn er es doch tatsächlich gesagt hätte! Agar u buni haqiqatdan ham aytganda edi!
- (5) Hat er es doch tatsächlich gesagt. Axir u buni haqiqatdan aytdi-ku.

Modal so'zlar gapning har bir maqsadga ko'ra turida turli xil ma'no kasb etadi. Yuklamalar singari, modal so'zlar ham gapning aniq bir turini xarakterlaydi. Ammo modal so'zlar yuklamalardan farqli o'laroq gapning mazmunini kuchaytirishga qaratilsa, modal yuklamar asosan so'zning mazmunini kuchaytirishga qaratiladi. (vgl. Fritz 2000:194)

Bir qarashda, ularni gap mazmuniga ta'sir qilishiga qarab gern (bajonu dil), blindlings (ko'r-ko'rona) yoki to'da-to'da bo'lib) kabi ravishlarga yaqinlashadi. Ammo ularni bundan ajratib turadigan va butunlay boshqa semantik va sintaktik shartlarga bo'ysunadigan o'ziga xos sinfi mavjud. Modal so'zlar ravishlardan butunlay boshqa semantik - sintaktik vazifalarni bajarishi bilan farqlanadi. Modal so'zlar muloqot uchun nihoyatda muhimdir. Ular gapning mazmuniga ta'sir etadi, va shu bilan birga so'zlovchi va tinglovchi orasida asosiy vosita hisoblanadi. Quyida modal so'zlarning umumiy semantik xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.

Avvalambor „so'zlovchining modal so'zlar orqali gap mazmuniga munosabati deganda nima tushuniladi?“ degan savolni o'rtaga tashlaymiz. Buni gap mazmuniga ta'sir qilayotgan modal so'zga qarab aniqlash mumkin.

- (6) *Wahrscheinlich hat Peter es gesagt. Ehtimol buni Peter aytgandir.*

Bu gapdan shuni tushunish mumkinki, so'zlovchi buni Peter aytgan yoki aytmaganligiga hali amin emasligini ifodalayapti.

Bunda so'zlovchi *Peter buni aytgan* gapiga o'z munosabatini bildirib, gapga gumon ma'nosini olib kiryapti. Agar gapda mana shu gumon ma'nosi bo'lmasa, tinglovchi gapning haqiqat ekanligiga so'zsiz ishonadi. Aniqlik mayli orqali gap mazmuni tinglovchiga aniqroq va tushunarliroq bo'ladi. Gapga ravishlar modal ma'no berish o'rniga ich glaube (menimcha), Ich nehme an (men o'ylaymanki) kabi kirish gaplar yoki Konyunktiv (shart mayli) dan foydalanishi mumkin.

(6a) Peter hätte es gesagt – Peter buni aytgan bo'lardi.

Bu bilan gap yanada ishonchliroq bo'ladi. Chunki Konyunktivning asosiy vazifasi ham tinglovchining so'zlovchiga bo'lgan ishonchni oshirishdir. Shu sababli agar so'zlovchining aytayotgan gapiga aminlik darajasi ko'rib chiqilsa, modal so'zlarni ma'lum darajada konjunktiv bilan taqqoslash mumkin. Ammo mantiqan olganda aniqlik maylidagi modal so'zli gap xuddi modal so'zsiz gap bilan deyarli bir xil bo'lib qoladi. Shu sababli ushbu turdagi gaplarni yanada chuqurroq o'rganish kerak.

Konyunktiv I gapning ma'nosiga o'z munosabatini bildiradi va so'zlovchiga bo'lgan ishonchni oshiradi. Buni darak gaplarda ko'rish mumkin.

(7) Er sagte, Peter habe es gelesen – U aytdiki, Peter buni o'qigan.

Konyunktiv II gapga mumkinlik, imkoniyat tushunchasini beradi.

(8) Peter hätte das Buch gern gelesen, wenn er es gehabt hätte.

Agar kitob Peterda bo'lganda edi, u uni bajonidil o'qigan bo'lardi.

(9) Peter würde das Buch gern lesen, wenn er es bekommen könnte.

Agar Peter kitobni olganda edi, uni bajonidil o'qigan bo'lardi.

Uchala gapga ham modal so'zlarni qo'shimcha qilish mumkin:

(8a) Peter hätte das Buch wahrscheinlich/tatsächlich gelesen, wenn er es bekommen hätte. Agar Peter bu kitobni olganida ehtimol/aniq o'qigan bo'lardi.

(9a) Peter würde das Buch wahrscheinlich/tatsächlich lesen, wenn er es bekommen könnte. Agar Peter bu kitobni ola olganda edi, ehtimol/aniq o'qigan bo'lardi.

Bu misollardan quydagicha xulosa chiqarish mumkin. Birinchi navbatda modal so'zlar gap mazmuniga qo'shimcha o'zgarishlar kiritgan bo'lishi, va gapning ichonchlilik qiymatini kuchaytirgan yoki kuchsizlantirgan bo'lishi mumkin. Lekin gapning maqsadi o'zgargani yo'q, chunki gapning asosiy mazmuni Peterning kitobni o'qigan yoki hali uni o'qimaganligiga qaratilgan. Yana shuni ham aytib o'tish kerakki, ravishlar so'zlovchining aytgan gapiga aminligini izohlash borasida Konyunktiv I bilan to'g'ridan - to'g'ri raqobatlasha olmaydi. (vgl. auch Zifonun/Hoffmann/Strecker 1997:1127) Bir qarashda *wahrscheinlich* (ehtimol) so'zlovchining aytilgan gapga aminligini o'zgartirayotgandek ko'rinishi mumkin, lekin bunday emas. Aminlik faqat shartli ravishda berilyapti. Aniqroq aytganda, gap mazmuniga yanada aniqlik kiritishga to'g'ri keladi. Aslini olganda bu borada ravishlar Konyunktiv II bilan ham raqobatlasha olmaydi. Buni yuqorida keltirib o'tilgan misollardan ham ko'rishimiz mumkin.

Endi modal so'zlar gapning qaysi qismiga semantik va pragmatik jihatdan ta'sir o'tkaza oladi? degan savolni o'rta tashlaymiz. *Wahrscheinlich* va *tatsächlich* modal so'zlarning muhim guruhiga kiradi. *Wahrscheinlich* ravishi so'zlovchining aytgan gapiga nisbatan aminligini kamaytirishi ma'lum. Lekin *tatsächlich* ravishi bilan ham bunday aminlikni aniqlash

ancha mushkul. Yuqorida aytib o'tilganidek, indikativ morfemalari orqali gapning mazmuni qanchalik haqiqatga yaqin ekanligini semantik jihatdan to'la - to'kis ifodalash mumkin.

Ravishlarning yana bir xususiyati shundaki, ular gapning haqiqiylik qiymatiga ta'sir qilibgina qolmasdan, gap mazmunga baho bera oladi. *Hoffentlich*, *schwerlich* va *berechtigterweise* shuningdek *leider* kabi ravishlar o'zi qo'llangan gapning ma'nosiga ma'lum miqdorda ijobiy (*hoffentlich*) yoki salbiy (*schwerlich*) ta'sir qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Fritz, Thomas A. (2000): *Wahr-Sagen. Futur, Modalität und Sprecherbezug im Deutschen*. Hamburg: Buske.
2. Lochtmann K. Die soziolinguistische Kompetenz bei DaF-Lernenden und die Rolle der Modalpartikeln.- Brussel: 2013
3. Werner Abram. Diskurspartikel zwischen Modalität, Modus, und Fremdbewusstseinabgleich.- München: 2009.
4. Zifonun, Gisela/Hoffmann, Ludger/Strecker, Bruno (1997): *Grammatik der deutschen Sprache*. Berlin/New York: de Gruyter.